O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI BOSHQARMASI

BUYRUQ

№ *72* **“ 6 ” sentyabr 2023-yil.**

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 225-sonli rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining mazkur buyrug‘i bilan:

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati 1-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom 3-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimi odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning xududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom 9-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament 10-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik Ko‘rsatkichlari 11-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi Nizom 12-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tarkibiy va xududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlari va koordinatorlari to‘g‘risidagi namunaviy Nizom 13-ilovaga muvofiq;

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: VK54034478

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom 14-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, hududiy bo‘linmalari va uning tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha moddani kiritish to‘g‘risida Yo‘riqnoma 15-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

3. Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari, boshqarma bo‘lim boshliqlari, barcha mas’ul xodimlari, tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari rahbarlari hamda barcha mas’ul xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining ushbu buyrug‘i bilan tasdiqlangan ichki xujjatlar ijrosini belgilangan tartibda to‘liq va sifatli ta’minlash hamda buyruq talablariga qat’iy rioya etish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Samarqand viloyati qurilish Bosh boshqarmasi boshlig‘ining 2022-yil 7-fevraldagi 13-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

5. Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimi ushbu buyruq ijrosi yuzasidan amalga oishirlgan ishlarni umumlashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga hamda boshqarma boshlig‘iga axborot berib borilishini ta’minlasin.

6. Boshqarma devonxona va ijro nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi (I.Shavkatov) mazkur buyruqni boshqarmaning barcha xodimlari va tuman (shahar) qurilish bo‘limlari rahbarlari hamda xodimlariga yetkazish vazifasi topshirilsin.

7. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig‘i **L.Xamidov**